

SUN'IY INTELEKTNINGNING INGLIZ TILINI CHET TILI SIFATIDA O'RGANISHDAGI O'RNI

Po'latov Farrux Doniyorbek o'g'li

O'zDJTU, Tarjimonlik fakulteti, 1-kurs talabasi, +998939683252

farruhp765@gmail.com

Xodjayeva S.S

Ilmiy rahbar

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy maqolada zamonaviy ta'lim jarayonida sun'iy intellekt texnologiyalarining tutgan o'rni, ahamiyati va imkoniyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Shu jumladan, til o'rganishda sun'iy intellekt yaratib beradigan afzalliklar va keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan kamchiliklar qisqacha yoritilgan va iqtiboslar berilgan.*

Kalit so'zlar: *AI, ta'lim sohasi, zamonaviy texnologiyalar, Ingliz tili chet tili sifatida, afzalliklar, kamchiliklar*

Abstract: *This scientific article scientifically analyzes the role, importance and potential of artificial intelligence technologies in the modern educational process. In particular, the advantages and disadvantages that artificial intelligence can create in language learning are briefly highlighted and cited.*

Keywords: *AI, education, modern technologies, English as a foreign language, advantages, disadvantages*

АННОТАЦИЯ: *В данной научной статье научно анализируются роль, значение и потенциал технологий искусственного интеллекта в современном образовательном процессе. В частности, кратко освещаются и приводятся преимущества и недостатки, которые искусственный интеллект может создать при изучении языка.*

Ключевые слова: *ИИ, образование, современные технологии, английский язык как иностранный, преимущества, недостатки*

So'nggi yillarda raqamli texnologiyalar jadal rivojlanib, insoniyat hayotining deyarli barcha jabhalariga, jumladan, ta'lim sohasiga ham kirib kelgan. Bu jarayon ta'lim tizimini tubdan o'zgartirib yubordi. Mamlakatimizdagi barcha ta'lim muassasalari zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan va bu jarayon bilim olish niyatida yurgan har bir shaxs uchun keng imkoniyatlar yaratib bermoqda. Dars jarayonini innovatsion texnologiyalar bilan o'tish o'quvchi- talabalarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini orttiradi. Ta'lim tizimida o'quv jarayonining sifatini oshirishga hissa qo'shgan raqamli texnologiyalardan biri bu – Sun'iy intellektdir.

Sun'iy intellekt ta'lim tizimida, xususan xorijiy tillarni o'qitish jarayonida o'quv samaradorligini oshiruvchi bir qancha ustuvor jihatlari mavjud va ular quyidagilardan iborat:

- Tilni baholash. AI avtomatlashtirilgan testlar, so'zlashuv va yozishni baholash

orqali o'quvchilarning tilni bilish darajasini baholay oladi, bu esa o'quvchilarga o'zlarining kuchli tomonlarini va kamchiliklarini tushunishga yordam beradi.

➤ Til o'rganish ilovalari. Sun'iy intellekt asosidagi til o'rganish ilovalari individual ehtiyojlarga moslashtirilgan mashqlar, fikr-mulohazalarni kuzatishni taklif qiluvchi shaxsiylashtirilgan o'rganish tajribasini taqdim etadi.

➤ Chatbotlar va virtual repetitorlar. AI'ga asoslangan chatbotlar va virtual repetitorlar o'quvchilarni chet tilida so'zlashuv amaliyotiga jalb qilib, darhol fikr-mulohazalar va ko'rsatmalar beradi.

➤ Kontentni tanlash. AI algoritmlari o'quvchilarning xohishi va malaka darajasiga qarab videolar, maqolalar, podkastlar va viktorinalar kabi tegishli chet tillarini o'rganish materiallarini tavsiya qiladi.

Sun'iy intellekt nafaqat xorijiy tillarni o'qitish jarayonida, balki ta'lim tizimining boshqa sohalarida ham jarayonlarni optimallashtirishda, o'quvchi-talabalar ehtiyojiga moslashtirilgan ta'limni yaratishda va o'qitish sifatini hamda samaradorligini oshirishda muhim ro'l o'ynaydi. Shu bilan birga ta'kidlashimiz joizki, prezidentimiz ham aynan shu sohaga katta e'tibor qaratmoqda. Yurtboshimizning tashabbusi bilan mamlakatimiz bo'ylab ko'plab IT-parklar ochildi. Oliy ta'lim muassasalarida sun'iy intellekt, kiberxavfsizlik, IT-muhandislik kabi sohalar bo'yicha qabul kvotalari oshirildi. Bundan tashqari 21-oktabr kuni, Davlat boshqaruvi, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarda sun'iy intellekt tarmoqlarini jadal joriy etish masalari yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida prezidentimiz nutq so'zladi va o'z nutqida "Bugun insoniyat yangi sivilizatsiya bosqichiga – sun'iy intellekt davriga dadil qadam qo'ymoqda. Qaysi soha bo'lmasin, kim bu jarayonda qattiq izlanib, aniq natija qilsa, bir qadam oldinda yursa, marra shuniki bo'ladi", - deya ta'kidlab o'tdi¹⁶.

AI til o'rganishga yoki ta'lim sohasiga inqilobiy o'zgarishlar olib kirgan bo'lsada, u ba'zi kamchiliklardan holi emas. Ya'ni AI grammatik jihatdan to'g'ri javob bera olsa ham, ba'zi hollarda madaniy yoki kontekstual mazmundagi gaplarni noto'g'ri tushunishi mumkin. Masalan, hazil, iboralar, so'z o'yinlari va she'riy ifodalarni to'liq anglay olmasligi mumkin. Natijada, Bu holat o'quvchida noto'g'ri tushunchalar shakllanishiga olib keladi. Bundan tashqari, AI platformalari talaffuz, eshitib tushunish va jonli suhbat ko'nikmalarini yetarli darajada shakllantira olmaydi. Chunki bunday texnologiyalar tabiiy nutqning tezligi, ohang o'zgarishi lahja va dialekt farqlarini real odam darajasida namoyon eta olmaydi. ChatGPT foydalanuvchilari to'g'risidagi his-tuyg'ularni aniqlash uchun sentiment tahlildan foydalangan tadqiqotda Dizon shunday deydi: "Duolingo AI o'qituvchisi kabi chatbotlar oddiy muloqotlarni simulyatsiya qila olsa-da, ular insoniy suhbatlardagi ijtimoiy-pragmatik nozikliklarni - masalan, kinoyani tushunish yoki odob strategiyalarini kontekstga qarab moslashtirish - aks ettira olmaydi"¹⁷.

Bundan tashqari, o'quvchi biror bir matn tarjimasini yoki biror mavzuga doir savollar

¹⁶ <https://president.uz/oz/lists/view/8582>

¹⁷ Dizon, G. (2020). Evaluating intelligent personal assistants for L2 listening and speaking development. *Language Learning & Technology*, 24(1), 16-26. <https://doi.org/10.125/44705>

yuzasidan AI platformalariga, xususan ChatGPTga murojaat qilsa, o'quvchi undan tayyor javobni oladi. Bu esa o'quvchida shakllanishi kerak bo'lgan tanqidiy fikrlash, kreativlik kabi ko'nikmalarining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Agar o'quvchilar sun'iy intellektdan haddan tashqari foydalanib, uni o'z bilimlari va ijodiy fikrlashlari o'rniga qo'ysa, ularning mustaqil o'rganish qobiliyatiga zarar yetkazadi. Shuningdek, o'quvchi AI tomonidan tayyorlangan materialni o'z ishi sifatida topshirsa, ba'zi hollarda plagiat va akademik halollik kabi qoidalarga zid ish qilgan bo'ladi.

AI ta'lim tizimida ko'plab jarayonlarni avtomatlashtirayotgani sababli bo'sh ish o'rinlarining qisqarishiga olib kelishi mumkin. Bu esa nafaqat ishsizlik, balki an'anaviy ta'lim tizimining tubdan o'zgarishiga olib kelishi mumkin.

ChatGPT ning EFL (English as a Foreign Language - Ingliz tili chet tili sifatida) kontekstidagi asosiy afzalliklari orasida umumiy tilni bilish qobiliyatini va turli til ko'nikmalarini (masalan, grammatika, lug'at, sintaksis, yozish, tinglash, gapirish, o'qish) oshirish va tilni o'rganish motivatsiyasini rivojlantirish, o'quvchining mustaqilligini oshirish, shaxsiylashtirilgan o'rganish imkoniyatlarini taqdim etish, o'qituvchi-talabalarining yukini kamaytirish, darhol fikr-mulohaza, keng bilim bazasi, arzon narxlar, talabalar uchun EFL ko'nikmalarini darsdan tashqarida mashq qilish imkoniyati mavjud.

Biroq, ushbu tadqiqotlarda uning afzalliklari bilan bir qatorda, potentsial cheklovlar va kamchiliklar ham ko'rib chiqildi. Talabalar tomonidan ifodalangan asosiy cheklovlar va kamchiliklar ChatGPT ga haddan tashqari qaramlik, texnik muammolar, ishonchlilik muammolari, norasmiy registrlarni tushuna olmaslik, ChatGPT ning mono-modal interfeysi, sog'lom fikrlashning kamligi, axloqiy muammolar va xavfsizlik xavflari mavjud.

Bundan tashqari, hissiy qo'llab-quvvatlash va og'zaki bo'lmagan ishoralarning yo'qligi, ba'zi til ko'nikmalarini mashq qilish uchun cheklangan imkoniyatlar, uning tanqidiy fikrlash va tadqiqot ko'nikmalariga salbiy ta'siri, shaxsiy hayot va axloqiy muammolar bilan bog'liq muammolar, uning ijodkorlik va akademik halollikka salbiy ta'siri, o'qituvchilarning roli va shaxsiga salbiy ta'sir ko'rsatishi, juda uzoq fikr-mulohazalar va ta'limdagi tengsizlik EFL o'qituvchilari tomonidan ifodalangan asosiy kamchiliklardan biridir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, AI til o'rganish jarayoniga yoki ta'lim tizimiga yangilik, qulaylik va samaradorlik olib kirsada, uning tabiiy muloqotni, madaniy kontekstni va psixologik yondashuvni to'liq taqdim eta olmasligi uning asosiy kamchiliklari hisoblanadi. Demak, eng optimal natija milliy tajriba va innovatsion metodlar uyg'unlashishidir. Ya'ni undan me'yor bilan ongli ravishda foydalanish kerak.

Shundagina tillarni o'rgatish sifati yangi bosqichga ko'tariladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Dizon, G. (2020). Evaluating intelligent personal assistants for L2 listening and speaking development. *Language Learning & Technology*, 24 (1), 16-26. <https://doi.org/10125/44705>

2. Elliott, L. (2024). Advantages and disadvantages of AI in the EFL classroom. In the Asian Conference on Education 2023: Official Conference Proceedings (pp.491-499).

3. <https://president.uz/oz/lists/view/8582>

4. <https://www.ijces.net/index.php/ijces/en/article/download/107/44/1017>

5. <https://jalt.com.pk/index.php/jalt/article/download/327/266/598>